

OYSARA MAMATOVA

QORACHIQDAGI DARD

She'rlar



Toshkent
«Yangi asr avlodi»
2005

84(54)6-5

Kitobimni otam Hamro o'g'li Tursun xotirasiga
bag'ishlayman

*Ushbu to'plam shoirra Oysara Mamatovaning o'z
o'quvchilariga hadya etayotgan ikkinchi kitobidir.*


*Hayot quvonchlari, tashvishlari, ular chorrahalarida ro'y
bergan voqealari, ko'ngil boyliklari va yo'qotishlar,
muhabbat iztiroblari, dil ehtiroslari, qalb tug'yontari
«Qorachiqdagi dard» to'plami mundarijasini bezab turibdi.*

*Bu qalb satrlariga hech kim loqayd bo'lolmaydi. Shoiraning
izlanishlari, topilmalaridan albatta mamnun bo'ladi, degan
umiddamiz.*

W 31331
D Q 2

ISBN 5-633-01710-2

© Oysara Mamatova. «Qorachiqdagi dard».
«Yangi asr avlodii», 2005 yil.



«YURAGIM OSMONIDA BIR YULDUZ YASHAR...»

Buxoro sharif — avliyolar, anhiyolar, sozillar, shoiru ulamolar diyori. Bu tabarruk tuproqda oppoq ruhlar uchib yuradi, qutlug' joyga qadam bosib bo'lmaydi, ziyoratga kelgan har bir kishining, sayyoohning dili jonlanadi, niyatiga yetadi.

Hozirgi Buxoro adabiy muhātini Toshpo'lat Hamid (Alloh rahmatiga olgan bo'lsin!), Ahadjon Hasan, Toshpo'lat Ahmad, Sadriddin Salim Buxoriy, Samandar Vohid, G'ulom Shomurod, Ohunjon Safarov, Nodira Osoqovalarsiz aslo tasavvur etib bo'lmaydi. Bu va boshqa ijodkorlar o'zbek adabiyoti ravnaqiga baholi qudrat barakali hissa qo'shib kelayotgantiklari bilan faxrlanamiz. Bu xayrli jarayonni respublikamizning boshqa viloyatlari misolida ham ko'rish mumkin.

Qorako'lida yashab, qalam tebratayotgan iste'dodli shoira va adibalar orasida Oysara Mamatovaning hayotda o'z o'tmi, ijodda o'z ovozi borligini ta'kidlagim keladi.

Oysaraxon bilan bir ijodkor sifatida tanishganimga ham to'rt-besh yil bo'ldi. «Kamolot»chilar bilan «Turkiston» gazetasini kunlarini o'tkazgani borganimizda, uning qalb mashqlaridan bahramand bo'lgan edik. Yosh avlodga mакtabda ishlab ta'lum-tarbiya berish bilan birga, adabiyot, ayniqsa, she'riyatda ixlos qo'yib, ash'orlar bitib ko'zga tashlanib qolgan edi. Keyinchalik

saxovatli insonlar ko'magida Toshkentda, «Kamalak» nashriyotida O.Mamatovaning qaldirg'och kitobi — «Yurak yaproqlari» to'plami bosilib chiqdi va jamoatchilikning e'tiborini qozondi. Bu, muallimaga ijod bilan jiddiy shug'ullanish, so'z san'atini o'zlashtirish, ustozlardan saboq olish mas'uliyatini yukladi va bu o'z samarasini bermay qobnadi.

Buxorolik singluniz Oysaraxonning yangi to'plami qo'lyozmasi qo'limga tushib qoldi, uni tezda varaqladim. Birinchi kitob bilan bu to'plam orasida ijobiy baho beriladigan bo'lsa, tafovut ancha, Oysaraxonning she'riyatga havas deb qaramay, taqdir ekanligini his etganligi, mahorati oshganligi, endi nazmimizda o'z kalomini aytish yo'lida izlanayotganligi meni mammun etdi. Yalang'ochlik, bayonchilikdan qochib, yangicha tashbehlar, tumsollar, talqinlar joy olganligi bilan tabriklagim keldi. «Oy bo'ldon umidning kechalarida», «Bir dard ulg'aymoqda ko'ksinda», «Dardsiz qo'lda qalam bo'lolmas rubob», «Quyosh bo'lgim men senga mehmon», «Sindi ko'ksinda tillo qafas» she'rlarining nomlanishi ham ko'p narsani aytib turibdi.

Hayot quvonchlari, tashvishlari, ular chorrahalarida ro'y bergan voqeа-hodisalar, ko'ngil boyliklari va yo'qotishlar, muhabbat izziroblari, dil ehtiroslari, qalb tug'yonlari «Qorachiqdagi dard» to'plami mundarijasini bezah turibdi. Shoira bir to'rtligida:

*Ey Ollohim,
Ko'zlarimga nurling bersang, bas,
Yuragimga qo'ring bersang, bas,*

*Mayli dardning zo'rin bersang, bas,
Men ayolmas, qoyaman, qoya!*

desa, boshqa birida bunday nido keladi:

*Berkutib ko'ngilning ko'chalarini,
Ushladim chumoli qo'ichalarini,
Yemish qilib herdim qushchalarga,
Qo'l yetmagan bolam kulchalarini.*

*Bu qalb satrlariga hech kim loqayd bo'lolmaydi
Shoiraning izlanishlari, topilmalaridan albatta mammun
bo'ladi. To'plamda ana shunday mahorat bilan bitilgan
kitobxon qalbida aks sado beradigan nazm namunalari
talaygina. Shoira qizimizning bu yangi manzumasi
she'riyat muxlislarida iliq taassurot qoldirishiga
ishonaman. Oysara Mamatovadan qishloqda yashab,
ijod qilayotgan shoira va adibalar har tomonlama
moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlanishga arziydi.*

*Men iste'dodli murabbiya, fozila, oqila qizimiz
Oysaraxonga ilohiy omadlar tilab, shirin farzandi — yangi
kitobi bilan dil-dildan qutlayman va qalb suyukchisini
so'rayman. Shoiraning qalb satrlariga qulog tuting va
uning o'z niyatiga etishiga oq fotiha bering:*

*G'unchalarning boshin silab,
Maysalarga umr tilab,
Abad bahor kuyin tinglab,
Daryo kabl toshmog 'im bor!*

*Normurod NARZULLAyEV,
O'zbekiston xalq shoiri.*

ENDI TUTDEK TO'KILMOG'IM BOR

Boshim qo'ydim, bolish kuydi,
Dardlar meni buncha suydi,
Armon tig'i orzum suydi,
Endi tutdek to'kilmog'im bor.

Shiddat tilab bo'ronlardan,
Zavqqa to'lib zamonlardan,
Madad so'rab oq tonglardan,
Sabo bo'lib shoshmog'im bor.

G'unchalarining boshin silab,
Maysalarga umr tilab,
Abad bahor kuyin kuylab,
Daryo kabi toshmog'im bor.

UMIDIM, MEN SENI SEVAMAN

Qanotlari kuydi oqqushim,
Qo'l yetmagan imkonlar tushim,
Bahor xazon, yozimda qishim,
Armon meni buncha sevadi.

Munglar makon qildi ko'zimni,
Aytolmadim kerak so'zimni,
Unlar kuydiradi bo'g'zimni,
Armon meni buncha sevadi.

Dosh berib alam qamchisiga,
Tig' misol armon sanchisiga,
«Joylab qonim har tomchisiga»,
Umidim , men seni sevaman.

SINDI KO'KSIMDA TILLOYI QAFAS

Shoir Tilak Jo'ra xotirasiga

Sotmay arzonlarga kuyuk dardimni,
Anglab to'zonalarda qalb gardimni.
Toblab otashlarda yurak mardimni ,
Siz aytgan dunyoda kezyapman, ustoz.

Ekib ko'zlarimga mehru vafoni,
Siylab taqdir bergen jabru jafoni.
Joylab ko'ksim uzra yeru samoni,
Siz aytgan dunyoda kezyapman, ustoz.

Shirin shodliklarning bahridin kechib,
Sabrning talxu sho'r sharobin ichib,
Umiddan ohorli ko'ylaklar bichib,
Siz aytgan dunyoda kezyapman, ustoz.

Qalbning isyoni tinmay bir nafas,
Bugun ishqqa aylandi dildagi havas.
Sinib ko'ksimdag'i tilloyi qafas,
Siz aytgan dunyoda kezyapman, ustoz.

INTILAMAN SENGA, OLLOHIM

**Ichib mudom o'z halol oshim,
Chaqir yo'llardan terib toshim,
Qalbimda dard, chidab bardoshim,
Intilaman senga, Ollohim.**

**Yovuz bo'ronlarda to'kilmay,
Baland to'g'onlarga bukilmay,
Mashaqqatsiz shonga tikilmay,
Intilaman senga, Ollohim.**

**Vasling istab hijronda yondim,
Sensiz huzur kasridan tondim,
Yurakda tig', dilda sen... qondim,
Intilaman senga, Ollohim.**

**Osmon toqin elkamga tashla,
G'am tog'ila ko'nglimni g'ashla,
So'ng ko'r omon ko'ksimni chashma,
Intilaman senga, Ollohim.**

SEN QAYDASAN, QAYLARDASAN, MUHABBAT

Sitamlarning kuni tug‘di, siylandi,
Orzularim bag‘ri qonga belandi.
Yurak istab gado bo‘lib tilandi,
Sen qaydasan, qaylardasan, Muhabbat.

Mag‘rur boshim botdi bolishlarimga,
Kunu tunlar guvoh nolishlarimga,
Falak yelkadoshdir tashvishlarimga,
Sen qaydasan, qaylardasan, Muhabbat.

Bu yurak mashrabdir, metin bardoshi,
Ko‘rib tog‘ning erib nuradi toshi.
Ko‘k ko‘zidan oqdi shashqator yoshi,
Sen qaydasan, qaylardasan, Muhabbat.

Yeru osmon titrab bari xunobdir,
Ko‘z ochganim ko‘rganlarim sarobdir.
Kulbam sensiz vayronadir, xarobdir,
Sen qaydasan, qaylardasan, Muhabbat.

MEN HIJRONNI QANDAYIN SUYAY

«O'tgan har bir kunim ko'ksimga nishon»,
Hazindir sevinchim izlari, inon.
Orzuyim bo'ynida sirtmoqdir har on,
Men hijronni qandayin suyay .

Boshim qo'ysam bolish yonib ketadi,
Ko'zimda uyqular tonib ketadi.
Ruhim samolarga olib ketadi,
Ruhsiz tanni qaylargaga qo'yay.

Senga e'tiqodim xolisdan xolis,
O'zingsan tunimni yoritgan fonus.
Illoham, eltar yo'l olisdan-olis,
Aytgin, diydoringga qandayin to'yay.

OYNING O'ROG'IGA OSILGAN KO'NGIL

Oyning o'rog'iga osilgan ko'ngil,
Asramoqqa seni qo'lim yetmaydi.
Hajrida sarg'aygan yuzlari munglim,
Ovutgali seni so'zim yetmaydi.
G'oyibda tangrisan, zarrang tanamda,
Vaslingga to'ygali ko'zim yetmaydi.

KO'NGIL

Orzu uying shodmon etmadim, ko'ngil,
Mayli, sadpora bo'lib sen singil.
Tog'day dardlarimning bag'riga singgil,
Men senga shodlikni ko'rmasman ravo.

G'aflatda chorasiz qoldi Otabek,
Qabohat tig'ida qirqildi Kumush,
Qodiriy fig'oni bo'ldi g'amga bek,
Ko'ngil, bular senga emasmi yumush.

Bir yelkada Shayton, birida Rahmon,
Yonma-yon o'sadi alafu rayhon.
Chayon toshbaqaga nish urar pinhon,
Ko'ngil, bular uying etmasmi vayron.

Bas, shundan shodlikni ko'rmasman ravo,
Yetmish ikki tomirni ezguvchi navo.
Bahor nasimidayin epkinli havo,
Sening uylaringga bo'lishsin mehmon.

OY BO'LDIM UMIDNING KECHALARIDA...

Hoyu havaslarku etmadi nasib,
Boshim yopsam, turdim yuragim ochib,
Ipak qurti bo'ldim-ey, shoyidan kechib,
Sendan kecholmadim ozurda ko'ngil.

Sarson kezib xotira ko'chalarida,
Oy bo'ldim umidning kechalarida.
Kechdim sharbat kunning nechalaridan,
Sendan kecholmadim ozurda ko'ngil.

Yelkadosh bo'layin tog'day dardingga,
Bardoshim yetgulik tikan zahringga,
Kiprigim farroshdir qo'ngan gardingga,
Ko'ngil, sengadirman bir hamdard singil.

KO'NGIL QO'LIDAMAN

Dardim sig'mas jahonlara,
Yig'layman o'tgan onlara,
Qo'l yetmagan imkonlara,
Endi ko'ngil qo'lidaman,
Xayr endi, dilbandlarim.

Ruhsiz jasadni naylayin,
Yolg'on yashashni tashlayin,
Dardimni bayon aylayin,
Endi ko'ngil qo'lidaman,
Xayr endi, dilbandlarim.

Sahroni makon qilayin,
Sizlarga to'zim tilayin,
Endi siyratim siylayin,
Naylay, ko'ngil qo'lidaman,
Xayr endi, dilbandlarim.

DUNYO, SENGA SIG'MAYIN QOLDIM


Bezib ketdim yolg'onlaringdan,
To'zib ketdim to'zonlaringdan.
To'kilyapman har onlaringda,
Dunyo, senga sig'mayin qoldim.

Yuho bo'lay dardni yutguvchi,
Hijron abas, visol kutguvchi,
Hasratlarni bas unutguvchi,
Dunyo, senga sig'mayin qoldim.

Qush bo'lsam, samoga simrilsam,
Bulutning ko'ziga evrilsam,
Bir tomchi yoshdayin sovrilsam,
Dunyo, senga sig'armanmi, ayt?!

BIR ISHQDIRMAN QALB YECHOLMAGAN

G'unchadirman lab ocholmagan,
Nasimdirman dasht kecholmagan,
Bir ishqdirman qalb yecholmagan,
Hayot, tomiringda oqqan qoningman.
Majnuntolman qaddi bukilgan,
Bardoshdirman sabri so'kilgan,
Bir ertakman tushda to'qilgan,
Hayot, tomiringda oqqan qoningman.



DASHT TIKANI QALB QONATDI

Dasht tikani qalb qonatdi,
Ozorlari dard yaratdi.
G‘amlarimni xo‘p yayratdi,
Bir yoydayin bukildim man.

Kul bo‘ldi muhabbat qo‘ri,
Tubsiz quduq... ko‘ngil to‘ri.
Qolmadi qirq jondan biri,
O‘lib qayta tirildim man.

Shukr qilib bor imkona,
Ozor bermay ul tikona,
Yolg‘iz kirdim dard makona,
Darddan to‘lib yemrildim man.

SABR

Gar samo yuzin to'ssa-da bulut,
Quvonch, shodliklarim bo'lsa-da unut,
Ruhimni qontalash qilsa-da burgut,
Yurakka bir qatra sabr tilardim.

Makrdin to'silsaadolat yo'li,
Bevaqt to'kilsa murodning gulি,
Orzuyim bo'lsa armonim gulি,
Yurakka bir qatra sabr tilardim.

Ko'zimda hayratning shu'lasi shaydo,
Ko'ksimda yangi ruh bo'lmoqda paydo,
O'shal Faridun bo'lgunicha to
Yurakka bir qatra sabr tilardim.

BIR DARD ULG'AYMOQDA KO'KSIMDA

Tinglab munojot kuyini,
O'pib xazonlarning poyini.
Dog'lab makon qilgan joyini,
Bir dard ulg'aymoqda ko'ksimda.

Sunbul-sunbul sochin tarashib,
Kunduz quyosh bilan talashib,
Tunda to'lin oyla sirlashib,
Bir dard ulg'aymoqda ko'ksimda.

Yo'liga zor bo'lib kutganim,
Yillar tilab-tilab topganim,
Boshim silab-silab qonganim,
Bir dard ulg'aymoqda ko'ksimda.

Shu dard o'tida kuyib boraman,
Mushk anbaring tuyib boraman,
O'z-o'zimdan tonib boraman,
Dargohingni suyib boraman.

YURGIN, DARDIM, KETAYLIK

**Tikanlarning boshog‘idan,
Loqaydlikning botqog‘idan,
Atirgulning butog‘idan,
Yurgil, dardim, ketaylik,
Samolarga yetaylik.**

**O‘gitlaring qilmaydi kor,
Tentiraydi ayozda or,
Ko‘rinmaydi burguti sor,
Yurgil, dardim, ketaylik,
Samolarga yetaylik.**

**Mehr ko‘chang tor qurildi,
Orzu uying xor ko‘rildi,
Imkoningga dor qurildi,
Yurgil dardim, ketaylik,
Samolarga yetaylik.**

**Siylayin qarog‘imla,
Asrayin qabog‘imla,
Dildagi titrog‘imla,
Yurgil, dardim, ketaylik,
Samolarga yetaylik.**

DARDSIZ QO'LDA QALAM BO'LOLMAS RUBOB

Shamol bo'lmasa gar tebranmas daraxt,
Kuz sabab bargini to'kar u karaxt,
Dardsiz qo'lda qalam bo'lmas rubob,
Rubob chertilmaskan qalb bo'lmas kabob.

Dardli chiqsa kuyim men to'sdim yo'lin,
Onam qo'luzatsalar yetsin deb qo'lim,
Fig'on bozoriga solmadim yo'lim,
Xudo, endi qalbga o'zing ber to'zim.

Kelgan ilhomlarim yo'lin jilovlab,
Men nihol o'tkazdim, nihol sarg'aydi,
Oxir oqibatda men qulab-qulab,
Uch nihol yashnatdim, yuzim sarg'aydi.

Ollohim, dardimga o'zing ber shifo,
Sen bergan kuylarga men qildim jafo.
Umrim yozi angladim... menku bevafo,
Niholim sarg'aytma... sen qilgin vafo.

* * *

Hoyu-havaslarku etmadi nasib,
Boshim yopsam, turdim yuragim ochib,
Ipak qurt bo'ldim-ey, shoyidin kechib,
Sendan kecholmadim ozurda ko'ngil.

Sarson kezib xotir ko'chalarida,
Oy bo'ldim, umidning kechalarida.
Kechdim sharbat kunning nechalaridan,
Sendan kecholmadim ozurda ko'ngil.

Yelkadosh bo'layin tog'day dardingga,
Bardoshim yetgulik tikan zahringga,
Kiprigim farroshdir qo'ngan gardingga,
Ko'ngil, sengadirman bir hamdard singil.

OTAM RUHIGA

Guvoh bo'ldim o'ttiz yettimda,
Ko'z ilg'amas shukuhingizga.
Lol turibman, qalam qo'limda,
Talpinib men pok ruhingizga.

Berk eshiklar ochilar sim-sim,
Tilaklarim bo'lib ijobat,
Quvvat berar kimdir nidosiz,
Bu qanday kuch, qandayin qudrat?..

So'ng bor ko'rdim o'zingizni ham,
Anglolmadim so'zingizni ham,
Qo'l uzatdim, qo'lim yetmadi,
Quchay dedim, qucholmadim ham.

Foyda bermas hech bir darmonlar,
Qalbingizda ummon armonlar,
Uyingizda men bebaxtingiz,
Uchrashdig-u vidolashdingiz.

UMIDAGA

(*Otti yillik ya 'qotishdan
so 'ng qo 'lga olgan qizalog 'imga*)

Qulagan daraxt edim, tirkak bo 'lgan sen,
Ruhsiz bir xor edim, tilak bergen sen.
Hayotga qaytarib sergak qilgan sen,
Endi yashash uchun imkonsan, qizim.

Botqoqqa botganda qo 'l bergen qizim,
To 'siqlar kelganda yo 'l bergen qizim,
Quvonchu shodlikni mo 'l bergen qizim,
Hali o 'qilmagan dostonsan, qizim.

Mehrga mendan zo 'r gado bo 'lmadi,
Sendan o 'zga aziz hamroh bo 'lmadi,
Dardim aytsam, aytib ado bo 'lmadi,
Mehrga qondirgan makonsan, qizim.

O'G'LIM ALISHERGA

Bir-bir ketdi norlarim u kun,
Ichga yutdim zorlarim beun,
Menga hayot bergenim, bolam,
Tilga bayot bergenim, bolam.

Bugun sarvdek qomating ko'rib,
Kuch ketganda omadim ko'rib,
Unsizgina yig'ladim, bolam,
Pora ko'nglim tig'ladim, bolam.

Qilolmadim qasrdek uylar,
Dabdabali surnayli to'ylar,
Sen o'zingsan qasrim ham to'yim,
Borlig'im u hayotim, uyim.

YURTINGIZGA KELDIM, YULDUZLAR

*Sevimli xonanda Oxunjon Madaliyev
xotirasiga*

*Ketaman, baribir ketaman,
Yulduzlar vatanı samoga .
(qo'shiqdan)*

Xayollarga qo'yib boshimni,
Juda erta oshab oshimni,
Silab-siypab tul bardoshimni,
Yurtingizga keldim, yulduzlar.

Sharbat qolib og'uni yutib,
Armonlarning qo'llarin tutib,
Yuraklarning choklarin so'kib,
Yurtingizga keldim, yulduzlar.

Keling, dardim to'kib solayin,
Dunyongizga singib olayin,
Endi sizning Vataningizda,
Abad yulduz bo'lib qolayin.

QODIRIY NIDOSI

**Qo'yib boshim xazonlarga,
Chiqib peshvoz azonlarga,
Dardim aytib osmonlarga,
Qumridayin bo'zladim men.**

**O'ylab naslim uzog'ini,
Uzib makr tuzog'ini,
Chekib taqdir azobini,
Qumridayin bo'zladim men.**

YURAK, SENDAN CHIQOLMADIM

Yillar sendan izlab tole,
Quchog'ingda bo'ldim tutqun.
O'zing menda, yo'ling uzun,
Yurak, sendan chiqolmadim.

Sen chiqqil- ey qafaslardan,
Bahramand bo'l havaslardan,
To'yib ol hur nafaslardan,
So'kib g'amning choclarini.

Faryod qilar qaroqda un,
Nidolarga bergin izn,
Yasha bir kungina erkin,
So'kib g'amning choclarini.

UMID YULDUZI

Yo'ldagi to'g'onlarni bir-bir qulatib,
Armonlarim tog'ini sekin nuratib,
Bo'y cho'zgan orzuyimga qanot ulatib,
«Yuragim osmonida bir yulduz yashar».

Nimjon bilaklarim qayta jonlatib,
Sarg'aygan yuzimni qayta qizartib,
Uzilgan qalb torimni kuyga shaylatib,
«Yuragim osmonida bir yulduz yashar».

Qorong'u tunlarimni charog'on qilib,
Sertashvish hayotimni farovon qilib,
Bosh ko'targan tuyg'ularim omon qilib,
«Yuragim osmonida bir yulduz yashar».

QUYOSHIM, KULARMISAN

Bardoshlarga esh bo'lib,
Ozorlardan tesh bo'lib,
Orzularga xesh bo'lib,
Quyoshim, kularmisan?!

Kuzimni bahor qilib,
Tunimni nahor qilib,
Armonim zor-zor qilib,
Quyoshim, kularmisan?!

Sabr oltinga do'nib,
Shabnamdek dardim erib,
Labga tabassum inib,
Quyoshim, kularmisan?!

Yutib ko'ngil zahrini,
Joylab kuzga dardini,
Kutdim, kutdim, kutyapman...
Quyoshim, kularmisan?!

TYUG'ULAR

Yig'ladim, yig'ladim, yig'ladim,
G'ussa girdobiga g'arq qalbim,
Yurak beshigida tin oldi
Bu dunyoga sig'magan dardim.

* * *

Qor ko'rpa ostida uxlaydi bahor,
Ko'ngilning tubida beorom sog'inch,
firoq ijaraga olgan visolni.

* * *

Oq xayollar, yo'ling bergen,
Shamoljon, sen najot bergen.
Qaldirg'ochjon, qo'ling bergil,
Samoga xesh bo'lgim keldi.

* * *

Berkitib ko'ngilning ko'chalarini,
Ushladim chumoli qo'lchalarini.
Yemish qilib berdim qushlarga,
Qo'l yetmagan bolam kulchalarini.

* * *

Ey Ollohim...
Yuzlarimga nuring bersang, bas,
Yuragimga qo'ring bersang, bas.
Mayli dardning zo'rin ber abas,
Men ayolmas, qoyaman, qoya...

OSHYONIM O'ZBEKISTON

Tuproqdan jon olib maysa yayraldi,
Olloh qudratidan inson yaraldi,
O'zga jonzotlardan farqlandi inson,
Toshlarning qahridan uchqun chiqqan on.
Yaratgan Ollohim, rizq bergan makon,
O'zingsan — oshyonim vatan-onajon.

Yovuz bo'ronlarda tuzilgan jonsan,
Toptalgan, xorlangan, ezilgan jonsan.
To'maris jismida oqqan pok qonsan,
Muqanna ruhida mangu isyonsan.
To'fonli moziydan xush kelgan omon,
O'zingsan — oshyonim vatan-onajon.

Temurbek zabit etdi yarim dunyoni,
Ulug'bek falakning bo'ldi sultoni,
Alisher turk elin biyron zaboni,
Boburning Vatan deb chiqdi fig'oni,
Bag'rin ochib qolgan sen, onajonim,
Ruhlari sargardon qadim Turonim.

Madadkordir senga ruhi sarsonlar,
Uloqdilar boshdan, og'ir harsanglar,
Hurlik shabadasi esdi sen tomon,
Buyuk kelajakka u eltar omon.
Qayta qad rostlagan qadim Turonim,
O'zingsan — oshyonim, O'zbekistonim.

VATANIM — SAJDAGOHIR

Vatanim — sajdagohim,
Mening qiblam, pano him.
Agar ul chaman bo'lsa,
Men bir uning giyohi.

O'smoqdaman bag'ringda,
To'yib zilol suvingdan.
Yashayman gul bog'ingda,
Qonib quyosh nuringdan.

Menga ozor berolmas,
Alafu tikanaklar.
Vatan omon bo'lsang, bas,
Yashnaydi gul-chechaklar.

Vatanim — sajdagohim,
Mening qiblam, pano him.
Agar ul chaman bo'lsa,
Men bir uning giyohi.

BUYUK ALLOMALAR AVLODIDAN BIZ

**Surat chizib metin toshlarni o‘ygan,
Olam uzra ajib san’atin yoygan,
Onajonim so‘zin toshlarga bitgan,
O‘sha qadim nasllar avlodidan biz.**

**Ulkan sultanatga poydevor qurgan,
Adolat tuyg‘usin yurakdan tuygan,
Yassaviy bobomga ixlosin qo‘ygan
Buyuk jahongirning avlodidan biz.**

**Tabobat ilmini olamga yoygan,
Samoga ilmning narvonin qo‘ygan,
She’riyat mulkining sultonni bo‘lgan,
Aziz allomalar avlodidan biz.**

**O‘z ona tilim deb tili kesilgan,
O‘z ona elim deb dorga osilgan,
Istiqlol deganda yo‘li to‘silgan,
Fitrat, Cho‘lponlarning avlodidan biz.**

**Tomirida turkiylar qoni oqqan,
Yo‘qolgan jonlari qayta jonlangan,
Asriy karaxtlikdan cho‘chib uyg‘ongan,
Shu turkiy ulusning avlodidan biz.**

QORAKO'L TARONASI

Ta'rifingni bitmoq uchun qo'lga oldim qalamimni,
Sha'ningga so'z aytmoqlikchun unutdim qayg'u-
g'amimni,

Qorako'l degan aziz so'z to'l dirdi ilhom jomimni,
Qorako'lim, durdonamsan, mening aziz koshonamsan.

Tarixingdir juda qadim, bunga guvoh Bobozamon,
Poykandingning ta'rifi so'z lab berar har bir
karvon,

Chibirdon otang poyiga boshin eggan har musulmon,
Qorako'lim, iymonimsan, mening qadim
mezbonimsan.

Yov yo'liga bo'lib qalqon, yurtim deya to'kkandir
qon,

Shahid ketgan necha o'g'lon, Murtazo Sherdek
qahramon,
Nomi abadiydir hamon, faxr etgudek mardlarga kon,
Qorako'lim, mardonamsan, mardin kutgan sen
onamsan.

Qorako'ling dunyo kezar, jumla jahon egnin bezar,
Paxta, doning oltinu zar, ipak tolang misli gavhar,
Oq chashmang eling to'ydirar, mehnating ketmas
besamar,

Qorako'lim, dehqonimsan, chorvadoru cho'ponimsan.

TURKISTON — UMUMIY UYIMIZ

«*Turklarda ko'rkamlik, yoqimllilik, odobllilik,
so'zining uddasidan chiqishlik, dadillik, kamtarinlik
kabi maqtashga loylq xulqlar sonu-sanoqsizdir».*

Mahmud QOSHG'ARIY

Turk qavmidan erurmiz, o'zbegu tojik, qozoq,
Naslu nasabimiz bir — turkmanu qoraqalpoq.
Qirg'iz bizga qardoshdir, qozoq esa yelkadosh,
Tojik bizga yo'ldoshdir, turkman esa qarindosh.
O'xshar urfu udumlar, o'xshar g'azal-kuyimiz,
Axir barchamizning bu — Turkistondir uyimiz.

Muqanna, To'marislар hammamizchun suyukdir,
Spitamin, Shiroqlar jasorati buyukdir.
Dadil bu turk elichun mutelik so'zi yotdir,
Shul sababdan asr osha alar mangu hayotdir.
Matonatli bu turkiylar bizning bastu bo'yimiz,
Axir barchamizning bu — Turkistondir uyimiz.

Dadilligu kamtarlik, bu qavmlarga xosdir,
O'zi pok, so'zi poklik ayollariga mosdir,
Sheryurak o'g'lolnari g'am anduhdan xalosdir,
Maqtashga loyiq xulqlar alar uchun libosdir,
Qoshg'ariy o'gitlari bizning fikru o'yimiz,
Axir barchamizning bu — Turkistondir uyimiz.

VATAN

Qir-adirda yastangan to‘lqindek zarrachalar,
Ajir tog‘ qo‘ynidan oqqan latif sharsharalar,
Samodan jilo berib tomayotgan tomchilar,
Tomchidan bahra olib, kokil yoygan maysalar,
Barchasi men uchun jonimga jon qadar, Vatan.

G‘oru qoya toshlarga chizilgan u naqshlar,
Enasoyda toshlarga muhr bo‘lgan bitiklar.
Necha-necha buyuklar poyin o‘pgan maskanim,
Tuprog‘idan zar ungan tilloga kon maxzanim,
Barchasi men uchun jonimga jon qadar, Vatan.

Sarkdasin yetti iqlimga qo‘llari yetgan,
Ul shoirdir qalam birla qilichni yenggan,
Nodiradir — yov sirtmog‘iga boshini qo‘ygan,
Xolambibidir Usmon uchun sochini yoygan,
Barchasin qoni erur jismim aro jon va tan.

Tabobat beshigi Buxoro — pirlar makoni,
Samarqand Temurbek taxti ravoni,
Qashqadaryo shoirlar, Xorazm hofizlar koni,
Go‘zal Toshkent kentlar mohitaboni,
Barchasin shoni mening shonimga shondir, Vatan.

GAR MENDAN

Gar mendan do'stlarim savol so'rsalar:
Daraxtlar ichida qay biri go'zal?
Jannatsifat daraxtlarga bo'lmay lol,
Mevali daraxtni tanlardim darhol.
Mevasizlik onlar yodimda hamon,
Bu kun men mevali bir daraxt bo'ldim.
Bahoriy dovullar esdi men tomon,
Bir necha dovulda men qaqshab turdim.
Mevalar pishmayin xazon bo'ldilar,
Qalbimni birma-bir o'klab ketdilar.

QIZIM OQILA XOTIRASIGA

*Kechalari paypaslayman, beshigting yo'q,
Beshigtingni u yog 'ida eshigi yo'q.*

(Qo'shiqdan)

Ayni yarim tunda ketarim mening,
Yulqab oldi ajal bag'rimdan seni.
Oppoq surpga qosh-ko'z, dahaning artdim,
Ilhaq bo'lib qoldim qo'yolmay labim.

Lol qoldim taqdirning men bu ishiga,
Nahot tushdim shum falak gardishiga?
Orzu-umidlarim bir armon bo'ldi,
Allalagan beshikmas narvon bo'ldi.

Har tong uyg'onaman yodi bilan band,
Na iloj yer qattiq, osmon-ku baland,
Qalbda ungan ilk chechagim mangu so'ldi,
Menga qoldirgani bir bo'shliq bo'ldi.

QUVONCH

*Olti yillik yo‘qotishlardan keyin dunyoga
kelgan qizalog‘im sha’niga ikki she’r.*

I

Cheksiz bir quvonchni yurakdan tuyib,
Mitti qo‘llarini ko‘ksimga qo‘yib,
Qizginam quvonchin boisin so‘zlar,
Vujudimda titroq, yoshlandi ko‘zlar.

Meningchun bunday on toj kiygan onlar,
O‘tdi bir tirnoqqa zor-zor zamonalr.
Bu yoshlar quvonchim shohidi do‘sstar,
G‘amni qo‘y, g‘amimdan ilonlar po‘sstar.

II

Mening jonu jigarim qizim,
Baxtlar ato qilgan bardoshim.
Or-nomusim, ko‘rарim-ko‘zim,
Quyoshimsan, oyu yulduzim.

Sho‘xliging-chun o‘qitdim u kun,
Sezdim gunohkordek o‘zimni.
Sendan uzr so‘rarman bugun,
Ko‘z yoshlarim yuvib yuzimni.

Kechir, menga baxt bergen malak,
Bu kech bo‘lib bir holu halak,
Xudoyimdan so‘rdim bir tilak:
Qizimni o‘zing asra, ey falak.

AYOL

Anduhlig' ayol turar ko'zda yoshi shashqator,
Qurigan bir daraxt misol qaqshar edi zor-zor,
Bevafo yor qilmishidan aziz boshi endi xor,
Ushbu notinch yuragimda bu ayolning dardi bor.

Farzandsizlik dog'i pora qalbin o'rtagan,
Yostiqdoshi hayotini, borlig'ini toptagan,
Bugun esa ulkan g'amning gi'dobida to'xtagan,
Ushbu notinch yuragimda bu ayolning dardi bor.

Yori o'zga yorga ketdi ko'rsatmayin bo'yini,
Ayol o'ylar nahot yo'qdir taqdirimning tayini,
Hayhot, nomard vayron qildi bu umidli o'yini,
Ushbu notinch yuragimda bu ayolning dardi bor.

Guldek umrin o'tkazdi-ku chidab farzand dog'iga,
Nokas yori o'rta yo'lida qordirdi g'am tog'ini,
Do'stlar, ayting, qandoq chiday uning tinglab ohini,
Ushbu notinch yuragimda bu ayolning dardi bor.

Anduhlig' ayol ko'zda yoshi shashqator,
Qurigan bir daraxt misol qaqshar endi zor-zor,
Bevafo yor qilmishidan aziz boshi endi xor,
Ushbu notinch yuragimda bu ayolning dardi bor.

O'QUVCHIMGA...

I

Istiqboli porloq o‘g‘il-qizlarim,
Sizdadir tosh qotgan orzularim.
Joningizda Sibirda yotgan jonlarim,
Hindiston yo‘lida sarson ruhlarim,
Savolim sizgadir ushbu zamon —
Nechun nazm sultoni Alisher hamon?
Bormu o‘n uchida toj kiygan o‘g‘lon?
Yetti iqlimni zabit etgan sulton?
Kim javob beradi ushbu savolga,
Bolam, qolmasmizmi bizlar zavolga?!
Barchasin xokini ko‘zlarga surtib,
Bosgan izlariga izdosh bo‘imasak,
Muqaddas kitobin tavoflar aylab,
Tushgan qalamini qo‘lga olmasak?

II

Bo‘lib misoli ona boshlarida parvonaman,
«Nodiralar xokin c‘p» — deb qizlarimga
yolvoraman.
«Allomalar barin tut» — deb har o‘g‘limga dil
yoraman,
Uchqunlar olov misol dilni yoqmas hayronaman.
Toptalgan bu uchqunlardan, bilmam, qachon
yonaman?
Sig‘may qoldim bu jahona, qalbi to‘la paymonaman.

MENING BIR QUSHCHAGA ICHIM YONADI

Bir g'arib kulbada bir qush yaraldi,
Bebaxt yaraldi-yu, qalbi qonadi.
Qush chekkan nolasi ko'kka taraldi,
Mening shu qushchaga ichim yonadi.

Qanot qoqib sayrar sekin ovozda,
Do'st-dushmanin anglolmayin parvozda,
Chohlar qazib g'animlar quvonadi,
Mening shu qushchaga ichim yonadi.

Vujudim parchasi o'zing qushginam,
Parvoz qilgin mardona, kumushginam,
Ilohiy kuch seni asrar ko'zlardan,
Yiroq qilar o'zi bo'hton so'zlardan.

TO'RTLIKLAR

Ortiqcha gap-so'zlar eshakka yukdir,
Qo'limda qalamim, qalbim kuyukdir.
Jonim yarimta-yu, nonim ham yarim,
Ammo, do'stim, mening butdir iymonim.

* * *

Shaxs jamiyatning javohiri etur,
Ul jamijonzotdan a'lodurur,
Nokaski, ayrim shaxsni past ko'rur,
O'zni ersa arshu a'loda bilur.

* * *

Banda bilmas, puli qo'lning kiridir;
Minib o'sha mansab-otga, kibr qilur,
Andin tushmoqlik-chi, hayot siridir,
Kibrni tark etmaskan bir kun yer qilur.

UZR

Afg' on tuprog'ida fig' on chekkanlar,
Guldayin umrini xazon etganlar.
O'z yurtidan ayri tushib, yitganlar,
Uzrlimiz qoshingizda biz bugun.

Gulbog'larda hatto yor kutmaganlar,
O'z yoriga dasta gul tutmaganlar,
Onasin allasin unutmaganlar
Uzrlimiz qoshingizda biz bugun.

Ketgan paytda to'rt muchangiz sog' edi,
Durkun bo'lib gavdangiz bir tog' edi,
Siz keldingiz misoli chol bukchayib,
Har yurakda alamli bir dog' edi.

Bu kimning nayrangi, kimning xatosi,
Ne edi alarning bu muddaosi?
Yoki sizgami bu taqdir jazosi?
Uzrlimiz qoshingizda biz bugun.

MUNDARIJA

N.Narzullayev. «Yuragim osmonida bir yulduz yashar...»	3
Endi tutdek to'kilmog'im bor	6
Umidim , men seni sevaman	7
Sindi ko'ksimda tilloyi qafas	8
Intilaman senga, Ollohim	9
Sen qaydasan, qaylardasan, Muhabbat	10
Men hijronni qandayin suyay	11
Oyning o'rog'iga osilgan ko'ngil	12
Ko'ngil	13
Oy bo'ldim umidning kechalarida	14
Ko'ngil qo'lidaman	15
Dunyo, senga sig'mayin qoldim	16
Bir ishqdirman qalb yecholmagan	17
Dasht tikani qalb qonatdi	18
Sabr	19
Bir dard ulg'aymoqda ko'ksimda	20
Yurgin, dardim, ketaylik	21
Dardsiz qo'lda qalam bo'lolmas rubob	22
«Hoyu-havaslarku etmadi nasib...»	23
Otam ruhiga	24
Umidaga	25
O'g'lim Alisherga	26
Yurtingizga keldim, yulduzlar	27
Qodiriy nidosi	28
Yurak, sendan chiqolmadim	29
Umid yulduzi	30
Quyoshim, kularmisan	31
Tuyg'ular	32
Oshyonim O'zbekiston	33
Vatanim — sajdaghohim	34
Buyuk allomalar avlodidan biz	35
Qorako'l taronasi	36
Turkiston — umumiy uyimiz	37

Vatan	38
Gar mendan	39
Qizim Oqila xotirasiga	40
Quvonch	41
Ayol	42
O'quvchimga	43
Mening bir qushchaga ichim yonadi	44
To'rtliklar	45
Uzr	46

Adabiy-badiiy nashr

OYSARA MAMATOVA

QORACHIQDAGI DARD
She'rlar

Muharrir A.SAID
Musavvir B.BOZOROV
Tex. muharrir V.DEMCHENKO
Musahhib D.MINGBOYEVA
Komp'yuterda sahifalovchi Ye.NAZAROVA

IB № 4007

Bosishga 16.03.2005y.da ruxsat etildi. Bichimi 70x84 1\32.

Bosma tobog'i 1,5. Shartli bosma tobog'i 1,64.

Adadi 1000 nusxa. Buyurtma № 69.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlod» nashriyot-matbaa markazida tayyorlandi.

«Yoshlar matbuoti» bosmaxonasida bosildi.

700113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.